

Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

## XUDOYBERDI TO`XTABOYEVNING JANNATI ODAMLAR ROMANIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI

Ismoiljonova Nilufar Qahramonjon qizi

Namangan davlat universiteti magistri

nilufarxonobidovna@gmail.com

+998932464841

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi o'zbek nasrida bola psixologizmining badiiy talqini o'rganiladi. Maqolada Xudoyberi To'xtaboyevning "Jannati odamlar" nomli asarida bola psixologiyasining badiiy xususiyatlari va bola ruhiyati masalalari o'rganiladi. Ushbu asarda bolalar dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari o'ziga xos badiiy uslubda yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается художественная интерпретация детской психологии в современной узбекской прозе. В статье рассматриваются художественные особенности детской психологии и вопросы детского поведения в произведении Худойбери Тохтабоева «Райские люди». В этом произведении в уникальном художественном стиле отражены детское мировосприятие, душевные переживания, внутренние конфликты и отношения с социальной средой.

**Annotation:** This article examines the artistic interpretation of child psychology in modern Uzbek prose. The article examines the artistic features of child psychology and issues of child behavior in Khudoyberi Tokhtaboyev's work entitled "Paradise People". In this work, children's worldview, mental experiences, internal conflicts and relations with the social environment are covered in a unique artistic style.

**Kalit so'zlar:** psixologiyaga, badiiy psixologizm, ruhiyat, bola onggi.

**Ключевые слова:** психология, художественная психология, психика, детское сознание.

**Key words:** psychology, artistic psychology, psyche, child consciousness

Adibning shoh asarlaridan biri bu - "Jannati odamlar" romanidir. Asar 4-5-yoshli bola tilidan hikoya qilinadi. Kattalar psixologiyasini o'rganish, tahlil qilish va asarda aks ettirishdan ko'ra bola psixologiyasi ancha murakkabdir. Ayniqsa asarni bola tilidan yozish ancha mas'uliyatli va yozuvchidan mahorat talab qiladi. "Jannati odamlar" romanida ham asarning bola tilidan yozilgani asarning ta'sir kuchini yanada oshirgan. Adib olamni bola nigohida tasavvur qila olgan va kitobxonlar buni his qilishlariga erisha olgan. Asarda Erkavoy buva bilan 4-5-yoshli otadan erta yetim qolgan va onasi boshqa turmush qurgan Rahmonberdining sarguzashtlari hikoya qilinadi. Asarda bolaning so'zlari hamda xatti-harakatlaridan adib uning ruhiy dunyosini chuqur anglaganlini seziladi. Bola aynan 4-5 yoshga dunyoni anglashga, tushunishga o'rganishga qiziqishi ortadi. Hamma narsaga qiziqadi, ko'plab savollar berib dunyoni odamlarni o'rganishga intiladi. Asardagi rahmonberdi ham huddi shundan bobosiga savollar beradi va javob olmaguncha tinib tinchimaydi. Asardagi bu holatlarni o'qir ekanmiz ko'z o'ngimizda yonimizda yurgan shu



Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

tengi bolalar gavdalanadi. Asarda Rahmonberdining soʻzlari uning dunyosi yetarlicha ochib berilgan “javob bermaysizmi unda eshshakning junidan tortaman yok aynan tuproq joyni moʻljallab yotvolib yigʻlayman bilan enam bundan qoʻrqai va tezgina rozi boʻladi.” Asardagi bu oʻrinlar uning ruhiyatini yanada chuqurroq ochib beradi.

Bolalar savol berishganda kattalarni goʻyo hamma narsani bilishiga ishonadilar. Ruhshunoslar hozirgi kunda bola bilan kattalarday gaplashish, ularning savollariga shoshilmasdan, qoʻpollik qilmagan holda javob berishni yoqlamoqdalar. Asarda ham Erkavoy buva nabirasining har bir bergan savoliga javob beradi huddi katta insonlar bilan suhbatlashganday suhbatlashadi. Bu ham bola ruhiyati va uning tarbiyasi uchun muhimdir. Bolani yoshlikdan mustaqil fikrlashga oʻrgatish, dunyoqarashini shakllantirish uchun uning ham gaplariga quloq tutish zarur. Unga oʻz fikrini bildirishiga imkon yaratib berish bolani mustaqil fikrlay oladigan, oʻz gaplarini qoʻrqmasdan ayta oladigan boʻlib tarbiyalanadi.

Asardagi quyidagi parchada ham biz uchun oʻrnak boʻladigan voqea uchraydi. Erkavoy nabirasidan koʻprikni qayerga qurishni maslahat qiladi bu arzimagan va oddiy holdir ammo bu bilan chol nabirasiga insonlarga yaxshilik qilish, oʻz fikrini bildirga olish qobiliyatini oʻrgatadi. Bola ruhi pok va rahmdil buni quyidagi parchada koʻramiz:

“Nega desangiz, men shu daqiqalarda yupqagina muz bilan qoplangan soyga tikilib, baliqlar suv ostida qolib ketgan boʻlsa, sovqotmasmikan, qorongʻu tushganda qayerda uxlashar ekan, deya xayol surayotgan edim.”<sup>1</sup>

Asardagi bu oʻringa diqqat qilaylik. “Bechora bobom eshakni tutib kelguncha ancha ovora boʻldi. Oʻzim boʻlsam huv nariga borib olib hiqillab yigʻlab, uzoq-uzoqlarga qochib ketsam-chi, buvijonim qayerda hozir, oʻshaning oldiga borib issiq bagʻriga boshimni qoʻyib arz-dod aytsam-chi, deya oʻylarga berilib, oʻzimni ovutish uchun boʻlsa kerak, tinmay soyga tosh otardim.”<sup>2</sup> Eʼtibor bering eshshakni junidan tortgani uchun shataloq otib ketib bobosi yiqiladi, hamma joyi jiqqa hoʻl boʻladi. Buni koʻrgan bola ichidan aybini tan oladi. Bu esa bola tilidan xatti-harakatidan sezilib turibdi. Oʻzim boʻlsam huv nariga borib olib hiqillab yigʻlab, uzoq-uzoqlarga qochib ketsam-chi, buvijonim qayerda hozir, oʻshaning oldiga borib issiq bagʻriga boshimni qoʻyib arz-dod aytsam-chi, deya oʻylarga berilib, oʻzimni ovutish uchun boʻlsa kerak, tinmay soyga tosh otardim. Oʻz aybini tan olib bu voqeani eslamaslik uchun uzoqlarga qochib ketishni xohlaydi yoki buvisining tizzasiga bosh qoʻyib yigʻlagisi keladi. Oʻzini ovutish bu voqeani eslamaslik uchun suvga tosh otib oʻzini ovutishga urinadi. Bobo ham bu vaziyatda nabirasini urishmaydi unga tanbehli nazar tashlab qoʻyadi shuni oʻzi bola uchun yetarli. Ammo yozuvchi bu voqeani bola tilidan ochib bermaganda anglash mushkul boʻlardi. Endi bola bobosini eʼtiborini oʻziga jalb qilishga urinadi. Endi senga hech ham oʻgʻil boʻlmayman! — deya qichqiradi. Oʻz aybini tan olib tursada, ammo kechirim soʻrolmaydi. Nima gap boshlashni bilmagan bola qaysarlik yoʻli bilan bobosini eʼtiborini tortadi. Erkachol, Jinni chol, Erkachol, Shinni chol, - Erkachol, Jinni chol, Ekachol, Shinni chol, bor alamini chiqarib yuborishni xohlaydi.

<sup>1</sup> Xudoyberdi Toxtaboyev. Jannati odamlar. Yangi asr avlodi. 2010.

<sup>2</sup> Xudoyberdi Toxtaboyev. Jannati odamlar. Yangi asr avlodi. 2010.



Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

Bola xato qilib o'z aybini tan olib Bu o'rinda ham biz uchun ibrat bo'ladigan voqea bor. Bola xato qilib o'z aybini tan olib turganda, ruhi singanda, biz uni haqoratlab so'kishimiz bola qalbiga bitmas jarohat yetkazishi mumkin. Bobo esa bu o'rinda nabirasiga nigohlari orqali nasihat qiladi xolos, bu yerda boshqa so'zlar ortiqcha ekanligini biladi. Hozirdachi bola xato ish qilsa tezda jahlimiz chiqadi, baqiramiz, kerak bo'lsa kaltaklaymiz. Behosdan bilmay ayb ish qilib qo'ygan bolakay nima bo'lganini tushunib ham yetmay bizdagi g'azabni ko'rib yanada qo'rqadi. Bu bola ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Asardan biz tarbiyaviy maslahatlar ham olishimiz mumkin.

Hamma bolalarda biror narsadan qo'rqish hissi bo'ladi. Asar qahramoni bola ham ajinalardan qo'rqadi. Ammo buvisi duo o'qib uni uzoqlarga haydab yuborgan. Bola tarbiyasida islomiy o'gitlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. "Enajonim «La ilaha illollohu» degan duoni o'tgan yili qishda menga ham o'rgatib qo'ygan-u, baribir o'sha duoni o'qiyotganimda ham ko'zimga ajinalar ko'rinayotganday bo'laveradi." Bolalarning o'y-xayoli har doim ajoyib, fantaziyaga boy. Ammo juda samimiy, yomonlik qilishni ko'zlashmaydi, bilishmaydi. Asardagi Rahmonberdining ham xayollariga diqqat qiling: Enam, bobojonim o'lib qolsa, biz nima qilamiz, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak. Men ham o'ylay boshladim. Avvaliga nima haqida o'ylashni bilmay turdim. Keyin do'xtirlar yaxshi-a, o'layotgan odamlarni qutqarishadi, katta bo'lsam, men ham do'xtir bo'laman, Qo'rg'onchamizda o'ttizgacha cholbobo bor, hech birini o'ldirganiga qo'ymayman, hammasidan bobojonim yaxshi, o'lmasin, o'lmasin, o'lmasin... Odamlar nega o'larkin, o'lgandan o'lmagan yaxshi-ku, o'lgandan keyin go'rda tirilib qolsa, nafasi qaytib qolmasmikin, deya ana shular haqida o'ylay boshladim... Keyin uxlab qolibman." Uning sof, samimiy niyati kitobxon diqqatini tortadi. "Katta bo'lsam doktor bo'laman, qishlog'imizdagi o'ttiztacha cholbobolar bor ushalarini o'lishiga yo'l qo'ymayman" bola ular bilan birga o'sadi, hammasini yaxshi ko'radi, qadrlaydi. Bola baribir bolada, uning o'z ichki olami tasavvuri bor. O'lgandan so'ng, qabrda tirilishga ishonadi, u yerda nafasi qaytmasmikin deb o'ylaydi.

Asar qahramoni Rahmonberdi boshqa bolalarga qaraganda aqlli. U bobosi bilan birga katta bo'lgani uchun ham ko'p narsalarni biladi. Eshon hazratlariga yordam berib uni yashirib qo'yishganda, buni eshitgan Rahmonberdi hech kimga aytmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYTLAR RO'YXATI:**

1. Ruxsora To'laboyeva. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida psixologizm. diss. avtoreferat. Toshkent- 2019.
2. To'laboyeva R. O'zbek bolalar adabiyotida kattalar va bolalararo munosabatda bolalar harakterining yoritilishi // O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2011.
3. Xazratqulova Shoxsanam Sharofiddinovna. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida bolalar ruhiyati tasviri. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 2023.
4. To'xtaboyev X. Jannati odamlar, - Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2010.

